



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 11 - aprel

VI-60-66-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi ishlar natijadorligi va yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish borasidagi dolzarb vazifalar ijrosi bo'yicha tuman hokimi o'rinbosarining axboroti to'g'risida

Yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi ishlar natijadorligi va yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish borasidagi dolzarb vazifalar ijrosi bo'yicha Angor tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy - ma'rifiy ishlar masalalari bo'yicha o'rinbosarining axboroti xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi majlisida eshitilganligi va ko'rib chiqilganligini hamda bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi ishlar natijadorligi va yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish borasidagi dolzarb vazifalar ijrosi bo'yicha Angor tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy – ma'rifiy ishlar masalalari bo'yicha o'rinbosarining axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy – ma'rifiy ishlar masalalari bo'yicha o'rinbosari, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi (D.Shanayev) sektor rahbarlari bilan birgalikda:

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-92-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi "Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 312-sonli qarorlari asosida tumanda "Yoshlar daftari"ni yuritish orqali yoshlar ahvoli va turmush sharoiti og'ir oilalar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlarni tashkil etish;

– yoshlarga oid davlat siyosatining tumanda amalga oshirilishi bo‘yicha hisobotni **har chorak** yakuni bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga taqdim etib borish topshirilsin.

3. Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (D.Shanayev):

– “Yoshlar daftari”da ro‘yxatda turgan tuman yoshlarini murojaatlarini mahallalar kesimida qayta o‘rganib chiqib, yil yakuniga qadar muammolarini hal etish, ishsiz yoshlarni ishga joylashtirish yoki “Yoshlar jamg‘armasi” mablag‘lari hisobidan kerakli asbob-uskunalar va mehnat qurollari olib berish orqali ularni bandligini ta‘minlash choralari ko‘rsin.

4. Sektor rahbarlari, tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy – ma‘rifiy ishlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (D.Shanayev)ga:

– tumanda har bir mahalla, ayniqsa chekka qishloqlarda madaniy-ma‘rifiy tadbirlar va sport musobaqalari o‘tkazish orqali iqtidorli, bilimli yoshlarni aniqlash, ularning jismoniy va ilmiy salohiyatini rivojlantirishga ko‘maklashish;

– joylardagi har bir tadbirni mas‘ul rahbarlar boshchiligida yuqori saviyada tashkil etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman hokimligi matbuot xizmati, “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan mutasaddi rahbarlar **har chorak yakuni** bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritib borsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Qo‘ziyeva) zimmasiga yuklansin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



X.Xolmurodov